

Date: 29th May-2025

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA TANQIDIY
FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH.**

Sh. Aripov

FarDU "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

P.f.b.f.d.(PhD)

Odilova Ozodaxon Zaynobiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 21-20 guruh talabasi

Anotatsiya: Mazkur ishda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati va usullari yoritilgan. Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning muammoga nisbatan tahliliy yondashuvi, dalillar asosida xulosa chiqarish va muqobil qarorlarni baholash qobiliyatidir. Tadqiqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va asosli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari ortishini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va fanlararo yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ish pedagog va psixologlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, amaliy misollar va tajriba natijalari bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, o'quvchilar tafakkuri, umumiy o'rta ta'lim, fikrlash ko'nikmalari, mustaqil fikrlash, maktabda ta'lim, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlar, tahliliy yondashuv, fikr yuritish.

KIRISH

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi. Tanqidiy fikrlash — bu insonning o'z fikrlarini mantiqiy asoslash, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish, dalillarga asoslangan holda xulosa chiqarish, shuningdek, stereotiplardan holi ravishda erkin fikr yuritish qobiliyatidir.¹³ Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomondan faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish va ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'sib kelayotgan o'quvchi yoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz o'ylaymizki, ushbu o'quvchi-yoshlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishadi. Biroq, bunga erishish uchun maktablarda

¹³ Manba: Nosirova, G. R. (2020). Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni. Toshkent: TDPU. — 45-bet.



Date: 29th May-2025



tanqidiy fikrlashni yaxshilashlari uchun o'quv dasturlari ko'proq amalish mashg'ulotlarga tayangan holda integratsiya qilinishi kerak. O'qituvchilar, psixologlar va faylasuflar bu borada bir fikrda bo'lishsa ham tanqidiy fikrlashning ahamiyati, kontseptsiyasi nimani anglatishi haqida hali ham kelishuv mavjud emas hamda o'qituvchilarni amaliyotda qo'llash uchun qanday tayyorlanishi kerakligi haqida bahs muzokaralar olib borilmoqda. Bugungu kundagi ta'lim tizimining ham asosiy maqsadlaridan biri umumta'lim maktab o'qituvchilari ushbu kontseptsyani qanday qabul qilishlarini va ular o'zlarining maktablarida qanday professional fon tariqasida tanqidiy fikrlash tajribasini olib kelishlarini o'rganish hisoblanadi. Bryusseldagi (Belgiya) uchta Yevropa maktabida jami yigirma bir o'qituvchi yarim tizimli suhbatlar orqali so'roq qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar tanqidiy fikrlash tushunchasini yaxshi tushunadilar. Ular tanqidiy fikrlashni turli strategiyalar orqali faktlarni tahlil qilish, boshqa faraziy vaziyatlarni idrok etish va aniq faktlar bo'yicha shaxsiy fikrlarni shakllantirish hamda takomillashtirish qobiliyati deb hisoblaydilar. O'qituvchilarning fikriga ko'ra, bular tanqidiy fikrlovchining asosiy xususiyatlari: turli xil madaniy muammolarga nisbatan fikr yuritish, hamkorlik qilish, tahliliy va ochiq fikrlash haqida o'z ifodasini topadi. O'qituvchilarning maktabdagi ta'limi, natijalar, bir tomondan, fikrlash xaritasini tuzish, guruh muhokamasi va sinfda tanqidiy fikrlashni faol o'rganish hamda rivojlantirish uchun hisobga olinadigan tegishli amaliyot ekanligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ular o'zlarining tajribalari hali ham cheklanganligini ta'kidlaydilar. Ularning kasbiy tajribasiga kelsak, ular o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida loyihaga asoslangan ta'lim va bolalar uchun falsafa orqali tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishni uchratganliklarini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ular bu sohada hali ham tengdoshlarni o'rganish va o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida ilg'or tajriba almashish orqali qo'shimcha yordam ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydilar. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli - tumanligini pedagoglar tushungan hamda qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash yakkayu yagona to'g'ri javobni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud.

Buning uchun:

- tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
 - o'quvchi yoshlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
 - turli - tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
 - o'quvchi-yoshlarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
 - o'quvchi-yoshlarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;
 - har bir o'quvchi-yoshlarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
 - tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.
- Shu munosabat bilan o'quvchi-yoshlar:

Date: 29th May-2025

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni etibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Ma'lumki, kishi bilayotgan va o'zlashtirayotgan narsaga tanqidiy munosabatda bo'lmasa, bilish faoliyatida tafakkurning musaqiligi bo'lmaydi. O'zbekiston uchun musaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Shu sababli maktab akademik litsey, kasb-hunar kollej va texnikumlar, oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faolashtirish, muvofiqlashtirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish kerak. Biroq tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi. Foydali axborot va fikrlarni olish bo'yicha tajriba, malaka ko'nikmalar hosil qilishlari kerak. Tanqidiy fikrlash - o'qish predmeti emas, balki o'qitish natijasidir. Bu g'oyalarni va ularning ahamiyatini ham ko'p fikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish hamda ularni boshqa g'oyalar bilan taqqoslashdir.

Birinchi bosqich - dawat bosqichi deb ataladi. Davat bosqichida o'qitishda interfaol metodlardan foydalangan holda o'quvchi talabalar topshiriq olishi, "Aqliy hujum" metodi orqali avval bilganlari yoki bilaman deb o'ylaganlarini ro'yxatini tuzishlari mumkin. Bunda "Aqliy hujum" yakka yoki juftlikda, keyin esa butun guruh ishtirokida o'tkaziladi. Biror o'quvchi talaba guruhdagi "Aqliy hujum" jarayonidagi fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishdan qat'i nazar, qanday bo'lsa, shu holda doskaga yozadi. So'ngra o'qituvchi o'quvchi talabalarga mavzuga bevosita aloqasi bo'lgan, lekin muhokama qilinmagan savollarni berish mumkin. Ushbu bosqich davomida o'qituvchi imkoni boricha kam gapirib, o'quvchi talabalarga ko'proq gapirishga imkoniyat yaratishi muhim. Lider o'quvchi talabaning asosiy vazifasi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida chiqishi va sinfda yoki guruhda fanlarni to'liq o'zlashtirmaydigan, o'quv jarayonida sus, fikrlash qobiliyati etarli rivojlanmagan o'quvchi talabalarining fikrlarini ham diqqat bilan tinglashdan iborat. Bu bosqichda pedagogik faoliyatning bir nechta muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, ta'lim oluvchi mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylay boshlashga majbur etadi. Shuni doimo esda tutish kerakki, agar axborot o'quvchi talabaga unda mavjud bo'lgan bilimlar majmuiy bilan bog'lanmasdan taklif etilsa, tez orada unitilib ketadi. Chunki ta'lim jarayoni yangi bilimlarni egallash va to'plash jarayonidir.

Ikkinchi bosqich anglash bosqichidir. Bu bosqichda o'quvchi talaba yangi axborot yoki fikrlar bilan muloqatga kirishadi. Bu muloqat matnni o'qishi, filmni ko'rish, nutqni tinglash yoki tajribalar o'tkazish kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Bu bosqich o'qitish jarayonida o'qituvchining o'quvchi talabalarga eng kam ta'sir qiladigan bosqichidir. Aynan bosqichda o'quvchi talaba mazkur ishda musaqil va faol ishtirok etishi kerak. O'qitishning shunday strategiyalari borki, ular doim faoliyati sus, fikrlash qobiliyati etarli darajada rivojlanmagan o'quvchi talabalarining faolligini yuqori darajada ushlab turadi. Masalan, 1986 yilda Vagan va Esez tomonidan shaxsiy kuzatish uchun taklif etilgan insert metodi (samarali o'qish va tanqidiy fikrlash uchun belgilarning interaktiv tizimi) mavjud. Insert



Date: 29th May-2025

metodi o'qish jarayonida o'zligini anglashni faol kuzatish uchun o'quvchi talabalarga imkon beradigan kuchli quroldir. Anglash bosqichining amalga oshirilishi bilim orttirishi jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki o'quvchi talabaning qobiliyati sus bo'lsa, uni o'qitish imkoniyatini boy berishi mumkin. An'anaviy ta'limda, afsuski, bunday holatlar tez-tez uchray turadi.

Uchinchi bosqich fikrlash bosqichidir. Bunda o'quvchilar yangi bilimlarni mustahkamlaydilar, yangi tasavvur va tushunchalarni avval mavjud bo'lganlariga qo'shib, o'zlashtiradilar. Aynan fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadga erishish yo'llari rejalashtiriladi. Birinchi navbatda o'quvchi talabalar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari orqali ifodalashga harakatlar qilishlari kerak. Bu yangi tasavvurlarni va tanqidiy fikrlarni hosil qilish uchun juda zarur.

Tanqidiy fikrlashning da'vat bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlarni musaqil tanlangan maqsad uchun ishlatish o'quvchi talabada kuchli bo'ladi. Ifodali fikrlashning ikkinchi bosqichini anglashda esa yangi axborot da'vat bosqichida faollashtirilgan axborot bilan bog'lanadi. Yangi o'quv materiallarining tushunilishiga erishish bu bosqichning muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish oson ish emas. Albatta, buning uchun tanqidiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beruvchi quyidagi muayyan muhit va shart-sharoitlar yaratilishi kerak;

- o'quvchilarga musaqil fikr yuritish uchun imkoniyat yaratib berish va ularni diqqat bilan tinglashga o'rgatish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, saralash, tanqidiy va ijodiy baholash;
- o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- o'quvchilarning o'z tanqidiy fikrlarini bayon etganlarida kulgiga qolmasliklariga qat'iy ishonitirish;
- har bir o'quvchi talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlashi lozim.

O'zaro fikr almashishda o'quvchilardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunda o'quvchi talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq o'quvchi talaba o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga qobiliyati yanada orta boradi.

Xulosa tariqasida shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchilar ta'limda buni targ'ib qilish uchun yetarli darajada tayyor bo'lishlari uchun mavjud amaliyotlar orqali tanqidiy fikrlashni o'rgatish bo'yicha yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishlari kerak. O'qituvchilarning idrokiga alohida e'tibor qaratilgan ushbu tezis o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi kontekstida "Tanqidiy fikrlashga oid amaliy kontekstlar"ni targ'ib qilish asoslarini aniqlashga yordam beradi. Natijalarning dolzarbligi "Tanqidiy fikrlashga oid amaliy kontekstlar" bo'yicha innovatsion o'qitish usullari bilan shug'ullanadigan turli manfaatdor



Date: 29th May-2025

tomonlar (o'qituvchilar, maktab direktorlari, tadqiqotchilar) o'rtasida kelajakdagi ta'lim tadqiqotlari va dizayni uchun ishlatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". 2017- yil 14-yanvar.
2. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., «Pedagogika», 1995. 233 bet.
3. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. -Т.,1999. 165- б.
4. Pol, R. V., Elder, L. & Bartell, T. (1997). Kaliforniya o'qituvchisini tanqidiy fikrlash bo'yicha o'qitishga tayyorlash: Tadqiqot natijalari va siyosat bo'yicha tavsiyalar. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha Kaliforniya komissiyasi Sacramento: Kaliforniya.

